



«TASDIQLAYMAN»
“Biznesni rivojlantirish banki” ATB
Boshqaruv raisining o'rinbosari
v.b.:
O.Voxidov

«21» avgust 2026 y.
№ 563

Texnik topshiriq
Bankning ta'lim kreditini ommalashtirish va sotuvini oshirish maqsadida oliy ta'lim
platformalarida raqamli reklama xizmatlarini ko'rsatish

№	Nomi	Talab
1	Buyurtmachi	“Biznesni rivojlantirish banki” ATB
2	Manzil	100011, Toshkent shahri, Shayxontohur tumani, A. Navoiy ko'chasi, 18-A
3	Xizmat nomi	my.edu.uz, HEMIS, career.edu.uz, shartnoma.edu.uz va kontrakt.edu.uz platformalarida ta'lim krediti bo'yicha raqamli reklama joylashtirish xizmatlarini ko'rsatish
4	Moliyalashtirish manbai	Bankning o'z mablag'lari
5	Texnik talablar	Ijrochi quyidagilarni ta'minlaydi: 1. 2 oy davomida my.edu.uz, HEMIS, career.edu.uz, shartnoma.edu.uz va kontrakt.edu.uz platformalarida reklama joylashtirish. Bunda reklama materiallari platformalarning veb-versiyasi va mobil ko'rinishida texnik imkoniyat mavjud bo'lgan barcha tegishli sahifalarda namoyish etilishi lozim. 2. Har bir platformada texnik imkoniyatidan kelib chiqib PopUp, TOP banner, navigatsion banner va “Stories” formatlarida reklama joylashtirish. Ijrochi kompaniya boshlanishidan oldin har bir platforma kesimida mavjud formatlar, joylashuvlar va texnik o'lchamlarni Buyurtmachi bilan yozma ravishda kelishadi. 3. Barcha bosiladigan reklama formatlari Buyurtmachi tomonidan ko'rsatilgan BRB ta'lim krediti mahsulot sahifasi, ariza topshirish sahifasi yoki boshqa kelishilgan landing page'ga faol havola orqali yo'naltirilishi lozim. Kreativlarda aniq harakatga chaqiruv (CTA) elementi qo'llanadi.

№	Nomi	Talab
		4. Har bir platforma va reklama formati uchun alohida UTM-parametrlar (utm_source, utm_medium, utm_campaign, utm_content) qo'llanadi. UTM tuzilmasi kampaniya boshlanishidan oldin Buyurtmachi bilan kelishiladi. Bu talab trafik va arizalarni platforma hamda format kesimida baholash imkonini berishi kerak.
6	Yetkazib berish muddati	Shartnoma imzolangan kundan boshlab 60 kalendar kuni (2 oy)
7	To'lov shartlari	Shartnoma qiymatining 100% miqdori Buyurtmachi tomonidan xizmatlarni qabul qilish-topshirish dalolatnomasi imzolangan kundan boshlab 10 bank kuni ichida to'lab beriladi.
8	Kafolat muddati	Reklama joylashtirish davri davomida, ya'ni shartnoma imzolangan kundan boshlab 60 kalendar kun.

kelishuvchilar: S.Niyazov

<https://hujjat.brb.uz/?pin=rX58hR26&id=651423b3-1503-4694-bf38-9d82f3c2d2af>